

HAR KIMNING “O‘Z” YUKI BOR...

Shomirza Turdimov

Boqijon To‘xliyev bilan Sayfidin Rafiddinov hangomasini Til va adabiyot institutining xodimlari ancha vaqtgacha aytib yurishdi... U zamonlar, institutda dala ishlari ko‘p bo‘lardi: chopiq, xashak yig‘ish, sabzavotu meva terish, paxtaniku aytmasa ham bo‘ladi. Bu tadbirlarda asosiy yuk institut yoshlarining zimmasiga tushardi. Ayniqsa ishga yangi qabul qilinganlar o‘z faoliyatini ushbu tadbirlarda o‘tkazar, bahonada xodimlar bir-birini yaqindan bilib olardi. Sayfidin Rafiddinov ham ishga qabul qiliniboq dalaga chiqqan, hali Xech kimni bilmaydi, tanishib ulgurmagani, bir ko‘rgani ariza yozish jarayonida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib turgan kishi – institutning ilmiy kotibi Rahmatulla Barakayev bo‘lgan ekan. Sayfidin aka tushintirilgan manzilga xodimlarni topib kelib qarasaki, ko‘ziga tanish odam turibdi. Eshon bobo tanish kelbatni topganidan suyunib qabatga qo‘shilgan, to tushlikkacha sherigiga Rahmatulla aka, deb murojat qilib, gapxona qilgan. Tushlik vaqti ham barchaning orasidan tanigan odamini topib, qatoriga qo‘ngan va “Rahmatulla aka”, deb og‘iz juflashi bilan u kishi birdan portlagan: “E, og‘ayni, ko‘zoynak taqqanning bari Rahmatulla Barakayev bo‘lavermaydi. Barakayev ana institutda, kabinetida o‘tiribdi, gapingiz bo‘lsa borib ayting. Men Boqijon To‘xliyevman!” Davra gurillab kulgan...

Bu voqeani eslashimga sabab Rahmatulla Barakayev bo‘ldi. Endilikda o‘tgan voqea xiyla olis tarix bo‘lsada, odamning yodiga ancha voqelarni soladi. Birinchidan ko‘zoynak taqqanning bari Rahmatulla Barakayev bo‘lmasada, Til-adabiyot institutida belgili ko‘zoynakli kishi Rahmatulla Barakayev edi. Ikkinchidan institutga kim kelsa ilk uchrashadigan kishisi ham Rahmatulla Barakayev bo‘lardi, sababi institut ma‘muriyati bilan bitishi kerak bo‘lgan barcha hujjatlar Rahmatulla Barakayev kabinetiga borishga majbur edi. Chunki u kishi institutning ilmiy ishlar bo‘yicha kotibi va bu ishda eng uzoq ishlaganlardan bittasi bo‘ldi. Naqd oz emas, ko‘p emas xuddi Sharof Rashidovday yigirma besh yilga yaqin ushbu lavozimda ishlab, o‘zi ham zerikib ketib, iltimos bilan boshqa vazifaga o‘tdi. Sayfidin eshonning ongida Rahmatulla akaning nomi o‘yib yozilib qolishi ham bekor emas. Bu sanog‘imizdagi uchunchi sabab bo‘ladi. U kishining ismi sharifini yoddan chiqaydigan talaffuz bilan aytib: “Rahmatulla Barakayev - ... vorahmtulahu vo barokatuhu”, esingizda qoladi, deb ta‘kidlash odatlari bor edi, ehtimol Sayfidin akaga ham shu gapni takrorlagan bo‘lsa ajab emas.

Institut ham qiziq joy, aslida bu ham bir o‘ziga xos oila. Institut boshqaruvini yuz foiz deb olsak, ish taqsimot ellik foiz direktorga qolgan elik foiz teng o‘rinbosar

va ilmiy kotib zimmasiga tushishi kerak bo‘ladi. Lekin taqsimot amalda bir xil tushmaydi. Aksariyat joylarda sakson-to‘qson foizini boshliq egallab oladi. Lekin Rahmatulla Barakayev ishlagan davrda, yukning og‘iri ilmiy kotib yelkasida turganini sezganman, balki ba‘zan yetmish foiz og‘ilikni Rahmatulla aka o‘z yelkasida tortgan bo‘lishi ham mumkin. Bu gaplarni hijjalab yozishimdan maqsad: Hozirda yetmish yoshni qoralayotgan akamni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida qanday faoliyat yuritgani, ishlagani va Institutning ilmiy-amaliy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida qanchalik o‘rin tutganini ibratli ko‘rsatib o‘tish bo‘ldi xalos.

Rahmatulla Barakayev faqat ma‘muriyaning ko‘zga ko‘ringan, ismini yodda saqlanishi erishgan ibratli xodimigina emas, eng avvalo o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi, va hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, bevosita bolalar adabiyotining hozirgi adabiy jarayon bilan bog‘liq dolzarb muammolarini, adabiy aloqalar, tarjima tarixi va nazariyasi bo‘yicha tadqiq etayotgan taniqli mutaxassis hisoblanadi. Olim o‘z sohasida tan olingan, ilmiy jamoatchilikni uning fikri bilan hisoblashishga erishgan tolmos tadqiqotchisi ham. XX asr bolalar sheriyaning yorqin siymolari Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjondan tortib endilikda ko‘zga ko‘rinib kelayotgan boshqa vakillari ham Rahmatulla aka bilan yaqin aloqada bo‘lishgan u nima der ekan, deb o‘z asarlari xususida domlaning munosabatlarini ilhaq kutganlariga guvohman.

Rahmatulla Barakayev manografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ilmiy-ommaviy maqolalarida o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi, shakllanish va taraqqiyoti tarixi muammolarini o‘rganib, umumlashtirdi. XX asr va istiqloq davri o‘zbek bolalar she‘riyati yetakchi xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan belgilab ko‘rsatish yo‘lariga o‘z hissasini qo‘shdi. Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, S.Barnoyev, T.Adashboyev, A.Obidjon, H.Imonberdiyev, Dilshod Rajab, Abdurahmon Akbar singari shoirlar ijodining o‘zbek bolalar she‘riyati takomilidagi o‘rni va rolini belgilashga baholi hol erishdi, Domlaning mazkur adib va shoirlar ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarining natijalari oliy ta‘lim tizimiga joriy qilinganligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Rahmatulla Barakayev 2013-yilda Abdulla Avloniyning “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asarini lug‘atlar va so‘ngso‘z muallifi sifatida nashrga tayyorlab chop qildi. Asarning milliy, madaniy, adabiy, diniy qadriyatlarini tiklash borasida yosh avlod ma‘naviy kamolotida alohida o‘rin tutadigan asar sifatida e‘tirof etilib, 2018-yilda 20000 nusxada qayta chop etilishi tadqiqotchining o‘z vazifasini a‘lo darajada amalga oshirganigi va jamoatchilik e‘tiboriga sazavo bo‘lganligi guvohlik beradi. Olimning 2014-yilda nashr qilingan “Tursunboy

Adashboyev fenomeniga bir nazar” (Akademnashr, hammualliflikda) monografiyasi ham adabiy va ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi hamda oliy o‘quv yurtlarida bolalar adabiyoti fani bo‘yicha qo‘shimcha material sifatida o‘quv jarayoniga tatbiq etildi va 2017-yilda qayta nashr qilindi. 2019-yilda chop etilgan “Bolalar adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasi (Buxoro: Durdona, hammualliflikda) ham oliy ta‘lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining Boshlang‘ich ta‘lim va Maktabgacha ta‘lim fakultetlarida ta‘lim jarayoniga tatbiq etildi. 2021-yilda ushbu kitobning qayta ishlangan va to‘ldirilgan varianti oliy ta‘lim vazirligi tomonidan darslik sifatida oliy o‘quv yurtlarining Boshlang‘ich ta‘lim va Maktabgacha ta‘lim fakultetlarida ta‘lim jarayoniga tatbiq etildi. 2022-yilda darslik 2-marta nashr qilingan. Rahmatulla Barakayev tamonidan yozilgan va chop bo‘lgan o‘ttizga yaqin monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanmalar amaliyotdan allaqachon o‘zining munosib o‘rnini topib, ilmiy jamoatchilikning e‘tirofiga sazovor bo‘lganligi olimning faxrlansa arzugulik mehnat natijalariga erishganidan dalolat beradi.

Rahmatulla Barakayev ishlarida ilgari surilgan ilmiy qarashlar uning shogirdlari tomonidan muvaffaqiyat bilan davom ettirilmoqda. Uning ilmiy rahbarligida 3 nafar fan nomzodi va 5 nafar falsafa doktori tayyorlangan bo‘lsa, 1 nafar tayanch doktorant va 1 nafar mustaqil izlanuvchi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Rahmatulla akadan yaqinda surishtirdim: “Oliy ta‘limda darslaringiz bormi?”. Rahmatulla aka bosh chayqab izoh berdilar: “Yig‘ishtirdim. Bir emas bir necha bor takrorlandi. Talaba ham ilmiy ish ham arzimmaydi, o‘tkazamiz, deyishadi, nima emish bu kishim sportchi emish. Sportchi bo‘lsa sportchiligini qilsin, bir talantning o‘rnini band qilmasin. Ketdim. Qutildim”. Bu suhbat domlanning kimligi, o‘z e‘tiqodga, prinsiplariga sodiq qolib kelayotgan zahmatkash, adabiyotga, ilmga sobit ishonchini yo‘qotmay, atrofdagilarni ham ana shu maqomga davat etib kelayotgan inson siymosni ko‘z o‘ngimda yanada mustahkam gavdalandi.

Omon bo‘ling, sog‘ bo‘lin Rahmatulla USTOZ!!!